

SHASHMAQOMNING BADIY VA MUSIQIY TUZILMASI: AN'ANA VA INNOVATSİYA UYG'UNLIGI



Elmurod Axmedov

“Maqom xonandaligi” kafedrasi professori

O‘zbekiston xalq artisti

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’at instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-21>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek musiqa madaniyatining muhim tarmog‘i bo‘lgan Shashmaqom san’ati badiy va musiqiy jihatdan tahlil qilinadi. An’anaviy va zamonaviy ijrochilik yondashuvlari, maqomning musiqiy tuzilmasi, poetik mazmuni va uning jamiyatdagi ma’nnaviy ahamiyati o‘rganiladi. Shuningdek, maqom san’atining yoshlar orasida ommalashushi va raqamli platformalar orqali yangi bosqichga chiqishi tahlil etilib, Shashmaqomda an’ana va innovatsiya uyg‘unligining muhim jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, o‘zbek musiqa madaniyati, badiy tahlil, musiqiy tuzilma, poetika, an’anaviy ijro, zamonaviy ijro, maqom va jamiyat, raqamli platformalar, innovatsiya va an’ana, yoshlar orasida ommalashish, madaniy meros, musiqiy strukturaviy tahlil, ijtimoiyma’nnaviy ahamiyat.

Аннотация: В статье анализируются эстетическая и музыкальная структура Шашмакома — одного из ключевых направлений узбекского музыкального наследия. Рассматриваются традиционные и современные подходы к исполнению, структурные и поэтические особенности макама, а также его духовное и культурное значение в обществе. Исследование также изучает, как Шашмаком приобретает популярность среди молодежи и развивается через цифровые платформы, подчеркивая синтез традиции и инноваций.

Ключевые слова: Шашмаком, узбекское музыкальное наследие, эстетический анализ, музыкальная структура, поэтика, традиционное исполнение, современное исполнение, макам и общество, цифровые платформы, инновации и традиции, популярность среди молодежи, культурное наследие, музыкальный структурный анализ, социально-духовное значение.

Abstract: This article analyzes the aesthetic and musical structure of Shashmaqom, one of the key branches of Uzbek musical heritage. It examines the traditional and modern approaches to performance, the structural and poetic characteristics of maqom, and its spiritual and cultural significance in society. The study also explores how Shashmaqom is gaining popularity among youth and evolving through digital platforms, highlighting the fusion of tradition and innovation.

Keywords: Shashmaqom, uzbek musical heritage, aesthetic analysis, musical structure, poetics, traditional performance, modern performance, maqom and society, digital platforms, innovation and tradition, popularity among youth, cultural heritage, musical structural analysis, social-spiritual significance.

Shashmaqom — bu o‘zbek musiqa madaniyatining bebaho durdonalaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida xalqning ma’nnaviy hayoti, badiy didi va badiy tafakkuri bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanib kelgan. Bu san’at turi Markaziy Osiyoning, xususan O‘zbekistonning boy madaniy merosida alohida o‘rin egallaydi. Shashmaqom tarkibida musiqiy, badiy, falsafiy va poetik unsurlar chuqr mujassam bo‘lib, u nafaqat musiqa sifatida, balki badiy va ruhiy tarbiya vositasi sifatida ham qadrlanadi. Unda xalqning azaliy orzu-umidlari, dard-u alamlaru, quvonch-u shukronalari, tarixiy xotirasi va ma’nnaviy dunyoqarashi o‘z ifodasini topgan.

Shashmaqomning murakkab tuzilmasi, uning o‘ziga xos ohangdorligi, sozlar va ovozlar uyg‘unligi ijrochidan yuqori darajadagi san’atkorlik mahoratini talab etadi. Shu bilan birga, u tinglovchidan ham ma’naviy sezuvchanlik, badiiy did va ichki musiqiy bilimni talab qiladi. Mazkur san’at turining shakllanishi va rivojlanishida ko‘plab buyuk hofizlar, sozandalar va bastakorlarning hissasi katta bo‘lgan.

Zamonaviy davrda esa Shashmaqom san’ati yangi bosqichga ko‘tarilib, texnologik taraqqiyot, raqamli platformalar va global madaniyat bilan uzviy aloqada rivojlanmoqda. An’anaviy ijro uslublariga zamonaviy talqinlar qo‘shilib, u keng auditoriyalarga yetib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada Shashmaqom san’atining badiiy va musiqiy xususiyatlari, uning tarixiy va madaniy ildizlari, shuningdek, an’anaviylik bilan innovatsiyaning qanday uyg‘unlashayotgani ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Shashmaqom san’ati o‘zining mustahkam tarixiy ildizlari va boy badiiy merosi bilan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarning markazida turadi. Ilmiy adabiyotlarda Shashmaqomning shakllanishi, rivojlanishi, musiqiy tuzilmasi va poetik asoslari haqida keng qamrovli tahlillar mavjud. Shashmaqomning ilmiy o‘rganilishi, avvalo, uning musiqiy tuzilmasini, shakllarini va ifodalovchi elementlarini o‘z ichiga oladi. Musiqashunoslar, xususan, Yunus Rajabiy, Fayzulla Xo‘jayev, Abduvali Qodirov va boshqa ko‘plab mutaxassislar maqomning tizimlashtirilgan shakllarini aniqlashda va ularni notalarga ko‘chirishda muhim hissa qo‘shganlar. Ularning ilmiy ishlari maqomning murakkab strukturaviy jihatlarini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda Shashmaqomning yosh avlod orasidagi tarqalishi, uning raqamli platformalarda targ‘iboti va milliy o‘zlikni shakllantirishdagi roli haqida keng tahlillar o‘tkazilgan. Bugungi kunda Shashmaqom san’ati nafaqat an’anaviy ifodalash vositalari orqali, balki internet va raqamli texnologiyalar yordamida ham keng tarqalmoqda. Maqomning yoshlari orasida ommalashuvi va uning turli raqamli platformalarda (masalan, YouTube, Instagram va boshqalar) yangicha talqinlari haqida so‘nggi yillarda e’tiborli tadqiqotlar mavjud. Bu jarayon Shashmaqomni yangicha auditoriyalarga yetkazish, uni global madaniyatda yanada tanitishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotlar maqomning badiiy mazmuni, uning musiqiy va poetik qirralari, shuningdek, uning ijtimoiy-falsafiy asoslari haqida ham keng qamrovli ma’lumotlar beradi. Maqom nafaqat musiqa san’ati sifatida, balki xalqning hayotiy qadriyatlari, ruhiy holati va falsafiy qarashlarini ifodalovchi vosita sifatida ham o‘rganilgan. Shu nuqtai nazardan, maqomning zamon bilan uyg‘unlashuvi jarayoni, ya’ni uning an’anaviy shakllari bilan zamonaviy o‘zgarishlar o‘rtasidagi sintez haqida ko‘plab ilmiy manbalar mavjud. Bu tadqiqotlar Shashmaqomning tarixi va kelajagi haqidagi murakkab savollarga javob izlashda muhim yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Shashmaqom san’ati haqidagi ilmiy adabiyotlar uning nafaqat musiqa shakli, balki xalqning ruhiy, ma’naviy va falsafiy dunyoqarashining aks etgan yuksak san’ati ekanligini ta’kidlashga yordam beradi. Bu asarlarda Shashmaqomning o‘ziga xos xususiyatlari, uning tarixiy konteksti va zamonaviy talqinlari haqida keng tahlillar berilgan bo‘lib, bu ilmiy yondashuvlar Shashmaqomni yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Ushbu maqolada Shashmaqom san’atining badiiy va musiqiy xususiyatlari chuqurroq tahlil qilish maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

- Musiqashunoslik metodi: Shashmaqomning lad tizimi, kompozitsion struktura, ritmika va ijro texnikasini tahlil qilishda musiqashunoslik metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida maqomning musiqiy asoslari, uning kompozitsion tuzilmalari, notalardagi ohang va ritm o‘zgarishlari, shuningdek, ijro uslublarining murakkabligi aniqlanib, maqomning an’anaviy va zamonaviy interpretatsiyalari o‘rganildi. Bu metod musiqaning texnik va badiiy jihatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi. Shuningdek, maqomning turli xususiyatlari, masalan, yuksak tonlar, arpejlar, ornamentlar va boshqa musiqa elementlarining qanday ishlatilishi haqida ham chuqur tahlillar olib borildi.

- Badiiy tahlil: Shashmaqom asarlarining poetik mazmuni, obrazlar tizimi va ularning badiiy ta’sirini chuqur baholash uchun badiiy tahlil usuli qo‘llanildi. Maqomdagagi g‘azallarning tasavvufiy va falsafiy mazmuni, ularning musiqa bilan uyg‘unligi, va obrazlarning

umumiylardan badiiy qarashlarga qanday ta'sir qilishi o'rganildi. Ushbu yondashuv maqomni faqat musiqiy shakllar bilan emas, balki uning tasavvufiy, badiiy va ruhiy boyliklari bilan ham ko'rib chiqish imkonini berdi. Tahlil davomida Shashmaqomning mazmunli obrazlari, lekin murakkab musiqiy ko'rinishlari, shuningdek, tinglovchining badiiy tajribasini qanday shakllantirishi haqida tafsilotlar berildi.

- Madaniyatshunoslik yondashuvi: Maqomning jamiyatdagi o'rni, an'anaviy marosimlardagi roli va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilishda madaniyatshunoslik metodidan foydalanildi. Ushbu yondashuv orqali Shashmaqomning xalqning ma'naviy hayoti, madaniy qadriyatlari va tarixiy xotirasi bilan qanday bog'langanligi, uning jamiyatdagi tarbiyaviy, ruhiy va badiiy funksiyalarini qanday bajarishi o'rganildi. Shuningdek, maqomning madaniy va ma'naviy meros sifatida jamiyatga ta'siri va uning ijtimoiy o'zgarishlarga qanday moslashganligi tahlil qilindi. Maqomning xalqaro miqyosda tarqalishi va uning jamiyatdagi ma'naviy birlikni mustahkamlashdagi o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida qayd etildi.

- Komparativ metod: Shashmaqomning boshqa Sharq musiqa tizimlari bilan, xususan arab maqomi, dastgoh va raga tizimlari bilan o'xhash va farqli jihatlari solishtirildi. Bu metod yordamida Shashmaqomning o'ziga xos xususiyatlari va uning boshqa musiqa an'analariga ta'siri, o'xhashliklar va farqlar aniqlanib, maqomning universalligi va uni butun Sharq musiqa madaniyati bilan aloqasi o'rganildi. Solishtirishlar orqali maqomning global musiqiy merosdagi o'rni yanada aniqroq ko'rsatildi. Komparativ tahlil Shashmaqomning turli geografik hududlar va madaniyatlarda qanday o'zgarishlar va evolyutsiyani boshdan kechirganini ko'rsatdi.

- Empirik tahlil: Shashmaqomga oid onlayn kontent, festivallar va yoshlar orasidagi maqomga bo'lgan qiziqish darjasini empirik tahlil yordamida kuzatildi. Internetda va ijtimoiy tarmoqlarda Shashmaqomning tarqalishi, yoshlar orasida uning o'rni va unga bo'lgan qiziqish darjasini aniqlanib, zamonaviy avlodning maqomga bo'lgan munosabati tahlil qilindi. Shuningdek, maqomga bo'lgan e'tibor va uning zamonaviy ijrosining yoshlar orasida qanday rivojlanayotgani haqida amaliy ma'lumotlar yig'ildi. Bu metod yosh avlodning Shashmaqomni qabul qilish va unga munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam berdi. Yoshlarning Shashmaqomga bo'lgan qiziqishi va uning zamonaviy ijro shakllarini qanday qabul qilishi, uning kelajagi haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini yaratdi.

Ushbu metodologik yondashuvlar yordamida Shashmaqom san'ati nafaqat musiqiy, balki madaniy, badiiy va falsafiy jihatdan ham chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida foydalanilgan metodlar Shashmaqomni turli nuqtai nazardan o'rganishga va uning ijtimoiy, madaniy va san'atshunoslik jihatlarini to'liq yoritishga imkon yaratdi. Har bir metod, o'z navbatida, maqomning rivojlanishini, uning madaniyatdagi o'rnnini va uni zamonaviy auditoriyaga etkazish jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Shashmaqom san'ati o'zining musiqiy qatlamlari, poetik matnlarining falsafiy mazmuni va ijro texnikasi orqali nafaqat milliy, balki xalqaro madaniyatda ham o'ziga xos o'rinni egallagan. Shashmaqomda har bir maqomning ohangdorlik xususiyatlari, tasavvufiy mazmunli g'azallarga asoslangan poetik tuzilma mavjud bo'lib, ular ijrochi va tinglovchi o'rtasida chuqur ma'naviy aloqani vujudga keltiradi. Maqomda ishlataladigan musiqiy va poetik usullar, tinglovchini ichki bir qiyofaga, ruhiy o'zgarishlarga olib keladi, shu bilan birga ma'naviy va badiiy o'rganishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Shashmaqomning musiqiy ohanglari va ularning poetik mazmuni o'rtasidagi uyg'unlik, bu san'at turining o'ziga xos va unikal xususiyatidir.

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar maqomni yangi avlodga yaqinlashtirmoqda. Shashmaqomning raqamli formatdagi talqinlari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi, yoshlar orasida uning qiziqishini oshirmoqda. Maqomning zamonaviy talqinlarida o'zgarishlar, uni yangi auditoriyaga tanishtirish va ularga uni qabul qilish imkoniyatlarini yaratishga yordam bermoqda. Yoshlar orasidagi konsertlar, musiqiy tadbirlar va ustoz-shogird mifikalarining faoliyati maqomning istiqbolini belgilamoqda. Ushbu tadbirlar nafaqat san'atni yangi shakllarda, balki uning kelajagini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Shashmaqomning nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda rivojlanishi ham kuzatilmogda. Prezident tashabbusi bilan tashkil etilgan xalqaro maqom festivallari, Shashmaqomni butun dunyoga tanitishda katta rol o'ynamoqda. Ushbu festivallar nafaqat mahoratni namoyish etish, balki maqomning universal musiqiy tilga aylanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shashmaqomning xalqaro sahnaga chiqishi, uning zamonaviy musiqiy tendensiyalar bilan uyg'unlashuvi, yangi ijrochilar va tinglovchilarning bu san'at turiga bo'lgan qiziqishini oshirgan.

Bundan tashqari, Shashmaqomning zamonaviy ijro shakllari va texnologiyalarga asoslangan yangi interpretatsiyalari, uning tarixi va madaniy merosi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni yanada boyitadi. Shashmaqomni yosh avlod orasida kengaytirish va rivojlantirish, uning madaniy va musiqa merosini global miqyosda tarqatish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati oshmoqda.

Shu bilan birga, Shashmaqomning innovatsion talqinlari va ijro usullarining rivojlanishi, uning musiqiy va badiiy ahamiyatini yangidan yangilashga imkon yaratmoqda. Zamon bilan uyg'unlashgan Shashmaqom san'ati, uni o'ziga xos va ajralmas san'at shakli sifatida saqlab qolish va yanada rivojlantirish imkonini bermoqda.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki Shashmaqom san'ati nafaqat o'zining musiqiy va poetik boyliklari, balki uning zamonaviy auditoriyalar bilan o'zaro aloqasi va rivojlanish istiqbollari hamda xalqaro miqyosda tanilish imkoniyatlari yuzasidan muhim natijalarga erishildi. Maqom san'ati o'zining ildizlaridan kelib chiqqan holda, bugungi kunda nafaqat milliy madaniyatning ajralmas qismi, balki global madaniyatda ham muhim o'rin tutadi. Shashmaqomning musiqiy va badiiy xususiyatlari, uning jamiyatdagi roli, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida yangi avlodga tanitilishi bilan bog'liq masalalar chuqur tahlil qilindi.

Quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:

1. Shashmaqom san'atining o'rganilishini tizimlashtirish:

Musiqa maktablari va konservatoriyalarda Shashmaqomni o'rganish jarayonini tizimlashtirish va mukammallashtirish muhim ahamiyatga ega. Maxsus darsliklar, o'quv qo'llanmalari va raqamli o'quv kurslarini ishlab chiqish orqali yosh avlodga maqomni o'rgatish jarayonini yengillashtirish mumkin. Maqomning an'anaviy talqinlarini zamonaviy ta'lif metodlari bilan uyg'unlashtirish, uning o'rganilish jarayonini samarali va keng qamrovli qilish zarur.

2. An'anaviylik va innovatsiya uyg'unligini qo'llab-quvvatlash:

Shashmaqomni zamonaviy asboblar bilan ijro etish mumkin, ammo uning musiqiy asoslariga putur yetkazmaslik muhimdir. Innovatsion texnologiyalar yordamida maqomni zamonaviy sharoitda yangilash, uning musiqiy tuzilmasini saqlab qolish va uni yangi ijro shakllariga moslashtirish muhim. Shu bilan birga, Shashmaqomning an'anaviy ijro usullarini saqlash, uning badiiy va ma'naviy mazmunini yo'qotmasdan, yangicha talqinlar yaratish kerak.

3. Raqamli platformalarda faoliyatni kengaytirish:

YouTube, Spotify va boshqa raqamli platformalarda maqom uchun maxsus kanallar, podkastlar va o'quv materiallari yaratish zarur. Raqamli texnologiyalar orqali Shashmaqomni global auditoriyaga tanitish va yoshlar orasida uning qiziqishini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish muhim. Bu platformalarda maqomni o'rganish, ijro etish va tinglash imkoniyatlarini kengaytirish orqali uning tarqalishini tezlashtirish mumkin.

4. Xalqaro madaniy almashinuvlarni kuchaytirish:

Shashmaqom ijrochilarining chet eldag'i festivallarda ishtiroki, xalqaro ilmiy konferensiylar, tanlovlар va musiqiy tadbirlarda faol qatnashish uning xalqaro sahnada tanilishini oshiradi. Tarjimalar, maqomning musiqiy va poetik mazmunini boshqa tillarda tushuntirish va uning madaniy qiymatini dunyo miqyosida targ'ib qilish zarur. Xalqaro madaniy almashinuvlar orqali maqomning global madaniyatdagi o'rni mustahkamlash imkoniyatlari mavjud.

5. Ustoz-shogird tizimini rivojlantirish:

Shashmaqomning avloddan-avlodga o'tilishini ta'minlash uchun ustoz-shogird tizimini yanada rivojlantirish lozim. Musiqa maktablari, konservatoriylar va akademik institutlarda ustozlar ishtirokida amaliy mashg'ulotlar, seminarlarga asoslangan ta'lif jarayonlarini yo'liga

qo‘yish zarur. Shuningdek, ijodiy maktablar tashkil etish orqali Shashmaqomni o‘rganish va ijo etishda yangi pedagogik usullarni tatbiq etish mumkin.

Bu takliflar Shashmaqom san’atining rivojlanishiga va uni yangi avlodga yetkazishda samarali yondashuvlarni taklif etadi. Shuningdek, Shashmaqomning xalqaro madaniyatdagi o‘rni va uning mustahkamlanishi uchun zarur choralar ko‘rish tavsiya etiladi. Bu jarayonlarni amalga oshirish, maqomni saqlab qolish va kelajakda uning ta’sirini yanada kengaytirishga imkon yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent: Fan, 1993.
2. Matyoqubov O. Maqomot T., 2004.
3. Matyoqubov O., Boltayev R., Aminov H. O‘zbek notasi(Xorazm tanbur chizig'i asosida Dutor maqomi namunalari) T., 2009.
4. Qosimov R. - An’anaviy rubob ijrochiligi O‘zbekiston-2000.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963.
6. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘zbek xalq muzikasi.(I-V) Toshkent. 1965.
7. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi II-qism. T., 2000.
8. Yunusov R. S’harq xalqlari maqomlari T., 2022.